

“Biznes uchun statistika” konsalting xizmatining konsepsiyasi

Kirish.

Zamonaviy biznesning jadal rivojlanishi va raqobatning kuchayishi sharoitida statistika ma’lumotlarining tahlili tadbirkorlik sub’ektlariga muvaffaqiyatli strategiyalarni ishlab chiqish va asosli qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ishonchli ma’lumotlarga asoslangan marketing tadqiqotlari esa tadbirkorlarga o‘z bozorlarini yaxshiroq tushunish va samarali biznes-rejalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Ma’lumotlar tahlilidan samarali foydalanadigan tadbirkorlar sezilarli raqobatdosh ustunliklarga erishadilar va barqaror rivojlanishni ta’minlaydilar.

Milliy statistika qo‘mitasi marketing tadqiqotlarini o‘tkazish uchun tahliliy ma’lumotlarni taqdim etishda o‘z imkoniyatlarini jalb etish orqali biznes uchun statistikani qo‘llab-quvvatlaydi. Bu, o‘z navbatida tadbirkorlarga bozor haqidagi tushunchalarini yaxshilash, yangi imkoniyatlarni aniqlash va rivojlanish strategiyalarini maqbullashtirish uchun rasmiy statistika ma’lumotlaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

“Biznes uchun statistika” konsalting xizmatini ko‘rsatish tartibi (keyingi o‘rinlarda – Tartib) O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risidagi” Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 24 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-75-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tartibning dolzarbligi.

“Biznes uchun statistika” konsalting xizmatini ko‘rsatish tartibining qabul qilinishi, tadbirkorlik sub’ektlari uchun maslahat va axborot-tahliliy ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha ishlarni olib borishni tartibga solishi bilan muhim o‘rinni egallaydi.

Ushbu Tartib Milliy statistika qo‘mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan statistik, konsalting, tahliliy, axborot, noshirlik va boshqa xizmatlar (keyingi o‘rinlarda – konsalting xizmatlari)ni ko‘rsatish bo‘yicha ishlarni bajarish hamda xizmatlar ko‘rsatish tartibi va qoidalarini belgilaydi.

Shuni inobatga olgan holda, Tartibning joriy etilishi, tadbirkorlik sub’ektlariga o‘z faoliyatlarini yanada rivojlantirishlari uchun ishlab chiqarilayotgan va ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan mahsulotlar bozorini

o'rganish hamda ularning import-eksporti to'g'risida ma'lumotlar asosida marketing va boshqa turdagi tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi.

Tartibning konseptual mazmuni.

1. Tartib loyihasida uning maqsadi, Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan konsalting xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish hamda xizmatlar ko'rsatish tartibi va qoidalari belgilangan bo'lishi kerak.

2. Alohida asosiy tushunchalarning ta'rifi berilishi, "konsalting xizmatlari", "buyurtmachi", "bajaruvchi", "maslahat berish", "seminar", "trening", "tegishli mas'ul xodim", "yozma eslatma", "sms eslatma", "telefon qo'ng'irog'i (sun'iy intellekt) orqali eslatma" kabi tushunchalarning mazmuni ochib berilishi zarur.

3. Tartibda Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan quyidagi konsalting xizmatlarining ko'rsatilishi nazarda tutilishi lozim:

- statistika kuzatuvlari shakllarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha maslahat xususiyatidagi (konsalting, tavsiya, maslahat berish v. b.) xizmatlar (*statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish (to'ldirish, to'g'rilash, qayta topshirish) va statistika ma'lumotlaridan foydalanish yuzasidan maslahat va tushuntirishlar berish, seminar va treninglar tashkil etish shaklida amalga oshiriladi*);

- statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish muddatlari to'g'risida xabardor qilish (ogohlantirish) (*statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish muddatlari to'g'risida respondentni elektron pochta, telefon, sms xabarnoma yordamida individual xabardor qilish (ommaviy e'lon qilingan holatlar bundan mustasno) shaklida amalga oshiriladi*);

- statistik ko'rsatkichlar asosida tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash (*muayyan soha va tarmoqlar bo'yicha mavjud statistik ko'rsatkichlar va uslubiyotlardan foydalangan holda tahlillarni o'tkazish va ma'lumotlar tayyorlash shaklida amalga oshiriladi*);

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish (taqdim etilishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlar bundan mustasno) (*O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks ettiruvchi, qo'shimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma'lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni qog'oz yoki elektron shaklda taqdim etib borish shaklida amalga oshiriladi*);

- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) bo'yicha ma'lumot taqdim etish (*KTYaDR bazasida davlat organlari va tashkilotlarning yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlaridan foydalangan holda, statistika tasniflagichlariga asosan shakllantirilgan ro'yxat asosida ma'lumotlar taqdim etish shaklida amalga oshiriladi*).

Loyihada Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan funksiyalariga muvofiq boshqa konsalting xizmatlari ham amalga oshirilishi mumkinligi yoritib berilishi lozim.

4. Tartib loyihasida statistika organlari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatiladigan har bir konsalting xizmat turini amalga oshirishning aniq mexanizmlari batafsil yoritib berilishi lozim.

5. Konsalting xizmatini ko'rsatish jarayonlarida statistika organlari tomonidan maxfiy hamda oshkor etilishi cheklangan yoki taqiqlangan ma'lumotlarni respondentlarga taqdim etilishiga yo'l qo'yilmasligi nazarda tutilishi lozim.

6. Konsalting xizmatlari uchun tariflar belgilash, shartnomalarni rasmiylashtirish qoidalari va kelib tushgan mablag'lardan foydalanish tartibi aniq belgilab qo'yilishi zarur.

7. Konsalting xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bajaruvchi bilan shartnomaning tuzilganligi, respondentlarni qonunchilikda belgilangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik yoki statistik ko'rsatkichlarni buzib ko'rsatganlik uchun ma'muriy jazo choralari qo'llanishdan ozod qilmasligi ko'rsatib o'tilishi lozim.

8. Tartibda, uni qo'llashda yuzaga keladigan nizolarni hal etish qoidalari va uning talablarini buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishi belgilab qo'yilishi zarur.

Kutilayotgan natija.

“Biznes uchun statistika” konsalting xizmatini ko'rsatish tartibini qabul qilinishi, tadbirkorlik sub'ektlariga samarali biznes-rejalarni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish imkonini beradi, o'z faoliyatlarini samarali rivojlantirishda ko'maklashadi hamda Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari uchun maslahat va axborot-tahliliy ko'mak ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish hamda konsalting xizmatlarini ko'rsatish uchun qonuniy asos yaratish imkonini beradi.

«Biznes uchun statistika» konsalting xizmatini ko'rsatish tartibi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. «Biznes uchun statistika» konsalting xizmatini ko'rsatish tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) O'zbekiston Respublikasining «Rasmiy statistika to'g'risidagi» Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 24 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-75-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Tartib Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan statistik, konsalting, tahliliy, axborot, noshirlik va boshqa xizmatlar (keyingi o'rinlarda – konsalting xizmatlari)ni ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish hamda xizmatlar ko'rsatish tartibi va qoidalarini belgilaydi.

3. Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan konsalting xizmatlarini ko'rsatish buyurtmachilar bilan tuziladigan konsalting xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish shartnomasi (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) asosida amalga oshiriladi.

4. Ushbu Tartib jismoniy va yuridik shaxslarning bir martalik so'rovlariga asosan statistika organlari tomonidan Shartnoma asosida taqdim etiladigan statistika ma'lumotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-bob. Atamalar va tushunchalar

5. Ushbu Tartibda quyidagi atama va tushunchalardan foydalaniladi:

konsalting xizmatlari – Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan statistik, tahliliy, axborot, noshirlik, hisobot muddatlari to'g'risida xabardor etish va statistika dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatish;

buyurtmachi – statistika organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatni olish uchun murojaat etgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki ularning qonuniy vakillari;

bajaruvchi – Milliy statistika qo'mitasi, hududiy statistika boshqarmalari, tuman (shahar) statistika bo'limlari hamda Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti;

maslahat berish – telefon yoki zamonaviy texnologiyalar orqali statistika organlarining tegishli mas’ul xodimlari tomonidan respondentlarga tushuntirish ishlari olib borish;

seminar – statistika kuzatuvlari shakllarini to‘g‘ri va sifatli to‘ldirilishini ta’minlash maqsadida, statistika organlari tomonidan hisobot taqdim etuvchi sub’ektlarga savol-javob tarzida, bajaruvchi yoki buyurtmachi binosida o‘tkaziladigan nazariy mashg‘ulot;

trening – statistika kuzatuvlari shakllarini to‘g‘ri va sifatli to‘ldirish hamda taqdim etishga ko‘nikma hosil qilish maqsadida, statistika organlari tomonidan hisobot taqdim etuvchi respondentlarga o‘tkaziladigan interaktiv amaliy mashg‘ulot;

tegishli mas’ul xodim – Shartnoma tuzilgan sanadan uning muddati tugagunga qadar bo‘lgan davr oralig‘ida, buyurtmachiga konsalting xizmatlarini amalga oshirishda ko‘maklashuvchi hamda javobgarlik yuklangan statistika organi xodimi;

yozma eslatma – bajaruvchi tomonidan statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etuvchi respondentlarning elektron pochta-siga hisobot muddati to‘g‘risida oldindan yuboriladigan xabar;

sms eslatma – bajaruvchi tomonidan statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etuvchi respondentlarning mobil telefon raqamiga hisobot muddati to‘g‘risida oldindan jo‘natiladigan sms xabar;

telefon qo‘ng‘irog‘i (sun‘iy intellekt) orqali eslatma – bajaruvchi tomonidan statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etuvchi respondentlarning mobil telefon raqamiga hisobot muddati to‘g‘risida telefon qo‘ng‘irog‘i orqali yuboriladigan ovozli xabar.

3-bob. Milliy statistika qo‘mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan konsalting xizmatlari turlari

6. Milliy statistika qo‘mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan quyidagi konsalting xizmatlari ko‘rsatiladi:

- statistika kuzatuvlari shakllarini to‘ldirish va taqdim etish bo‘yicha maslahat xususiyatidagi (konsalting, tavsiya, maslahat berish v. b.) xizmatlar (*statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish (to‘ldirish, to‘g‘rilash, qayta topshirish) va statistika ma’lumotlaridan foydalanish yuzasidan maslahat va tushuntirishlar berish, seminar va treninglar tashkil etish shaklida amalga oshiriladi*);

- statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish muddatlari to‘g‘risida xabardor qilish (ogohlantirish) (*statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish muddatlari to‘g‘risida respondentni elektron pochta, telefon, sms xabarnoma yordamida individual xabardor qilish (ommaviy e’lon qilingan holatlar bundan mustasno) shaklida amalga oshiriladi*);

- statistik ko'rsatkichlar asosida tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash (*muayyan soha va tarmoqlar bo'yicha mavjud statistik ko'rsatkichlar va uslubiyotlardan foydalangan holda tahlillarni o'tkazish va ma'lumotlar tayyorlash shaklida amalga oshiriladi*);

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish (taqdim etilishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlar bundan mustasno) (*O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks ettiruvchi, qo'shimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma'lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni qog'oz yoki elektron shaklda taqdim etib borish shaklida amalga oshiriladi*);

- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) bo'yicha ma'lumot taqdim etish (*KTYaDR bazasida davlat organlari va tashkilotlarning yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlaridan foydalangan holda, statistika tasniflagichlariga asosan shakllantirilgan ro'yxat asosida ma'lumotlar taqdim etish shaklida amalga oshiriladi*).

Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan funksiyalariga muvofiq boshqa konsalting xizmatlari ham amalga oshirilishi mumkin.

4-bob. Konsalting xizmatlarini ko'rsatish tartibi

7. Konsalting xizmatlari Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan buyurtmachi bilan Shartnoma tuzish orqali tijorat (to'lov) asosida ko'rsatiladi.

Buyurtmachi tomonidan yil davomida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish bo'yicha taklif kelib tushganda, ushbu Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

8. Mazkur shartnomalar Konsalting xizmatini ko'rsatish bo'yicha axborot tizimida avtomatlashtirilgan holatda shakllantiriladi. Bunda xizmatdan foydalanuvchi yoki statistika tizimi xodimi barcha ma'lumotlarni axborot tizimida tanlash orqali amalga oshiradi.

Konsalting xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnomada buyurtmachining telefon raqami va elektron pochta manzili aniq va to'g'ri ko'rsatilishi bajaruvchi tomonidan aniqlik kiritish hamda konsalting xizmatlarini o'z vaqtida ko'rsatishga mas'ul hisoblanadi.

9. Ushbu tartib qoidalari amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq statistika ma'lumotlarini bepul olish huquqiga ega bo'lgan vakolatli davlat organlari va tashkilotlariga nisbatan tadbiq etilmaydi (bunda konsalting xizmatlaridan ixtiyoriy asosda foydalanib, Shartnoma tuzish mustasno).

10. Statistika kuzatuvlari shakllarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha maslahat xususiyatidagi xizmatlar ko'rsatish, respondentlarga maslahat hamda tushuntirishlar berish, ular uchun seminar va treninglar tashkil etish orqali quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

a) respondentlarga bevosita muloqot, telefon tarmog'i yoki zamonaviy texnologiyalar orqali bajaruvchining mas'ul xodimlari tomonidan maslahat hamda tushuntirish ishlari olib boriladi;

b) seminar tashkil etish:

bajaruvchi tomonidan boshqa respondentlar uchun tashkil etilayotgan seminarga buyurtmachini ham tegishli xodimlari bilan taklif etish orqali;

bajaruvchi mas'ul xodim(lar)i bilan birgalikda buyurtmachining manziliga tashrif buyurgan holda sayyor seminar tashkil etish orqali;

bajaruvchi tomonidan buyurtmachi o'rtasida zoom platformasi orqali onlayn seminar tashkil etish orqali amalga oshiriladi;

v) trening tashkil etish:

bajaruvchi tomonidan boshqa respondentlar uchun tashkil etilayotgan treningga buyurtmachini ham taklif etish orqali;

bajaruvchi tomonidan buyurtmachi o'rtasida zoom platformasi orqali onlayn trening tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

11. Statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish muddatlari to'g'risida xabardor qilish (ogohlantirish) xizmatlarini ko'rsatish, bajaruvchi tomonidan:

respondentlarning elektron pochtasiga statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish muddati to'g'risida oldindan yozma eslatma jo'natish;

respondentlarning mobil telefon raqamiga statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish muddati to'g'risida oldindan sms eslatma jo'natish;

respondentlarning mobil telefon raqamiga statistika kuzatuvlari shakllarini taqdim etish muddati to'g'risida telefon qo'ng'irog'i (sun'iy intellekt) orqali ovozli eslatma yuborish orqali tashkil etiladi.

12. Statistik ko'rsatkichlar asosida tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash xizmatlarini ko'rsatish, mavjud statistik ko'rsatkichlar va uslubiyotlardan foydalangan holda, buyurtmachi tomonidan so'ralgan yillar kesimida (dinamik qatorlarda) muayyan soha va tarmoqlar bo'yicha tahlillarni o'tkazish va ma'lumotlar tayyorlash orqali tashkil etiladi.

13. Statistika ma'lumotlarini taqdim etish xizmatlarini ko'rsatish, buyurtmachi tomonidan so'ralgan sohalar, tarmoqlar, mahsulot, ish va xizmat turlari to'g'risida yoki boshqa kesimda, qo'shimcha ravishda ishlov berilgan ochiq statistika ma'lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni qog'oz yoki elektron shaklda taqdim etib borish orqali tashkil etiladi.

Bunda, maxfiy hamda oshkor etilishi cheklangan yoki taqiqlangan ma'lumotlarni respondentlarga taqdim etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

14. Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish xizmatlarini ko'rsatish, KTYaDR bazasida mavjud

bo'lgan davlat organlari va tashkilotlarning yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlaridan foydalangan holda, buyurtmachi tomonidan so'ralgan korxonalar soni bo'yicha ma'lumotlar taqdim etish orqali tashkil etiladi.

15. Ushbu Tartibning 10-14-bandlarida ko'rsatilgan xizmatlar turi va hajmi uchun tariflarni belgilash mazkur tartibning 5-bobida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

5-bob. Konsalting xizmatlari uchun tariflar belgilash va kelib tushgan mablag'lardan foydalanish tartibi

16. Konsalting xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflarni belgilash, buyurtmachi talab etgan tarif asosida, ushbu tartibning 1-ilovasida keltirilgan Konsalting xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.

17. Konsalting xizmatlarini ko'rsatishda respondentlar bilan shartnomalar tuzish bo'yicha tavsiya etiladigan xizmatlar qiymatining eng kam miqdorlari ushbu tartibning 2-ilovasida keltirilgan.

18. Konsalting xizmatidan tushgan mablag'larning taqsimlanishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- QQS – 12%;
- Konsalting xizmatini ko'rsatuvchi bo'limni rag'batlantirish (*kasaba uyushma badali (1%) va daromad solig'ini (12%) qo'shgan holda*) – 30%;
- Boshqarmaning xarajatlari (*kasaba uyushma badali (1%) va daromad solig'ini (12%) qo'shgan holda*) – 30%;
- Milliy statistika qo'mitasi (*ko'rsatilgan xizmatlar (ma'lumot taqdim etish, xabar yuborish, telefon va SMS), statistik to'plamlar, jumladan fleshkada*) – 10%;
- Ijtimoiy soliq (25%) – 15% mablag' taqsimlangan mablag'ga mos ravishda qo'shib o'tkaziladi;
- Xarajatdan keyin taqsimlanmagan – 3% mablag' boshqarmaning boshqa xarajatlari ushbu tartibning 3-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Konsalting xizmatini ko'rsatish ishlarini amalga oshirgan bo'linmalar va ularning xodimlarini rag'batlantirish ishlari:

rag'batlantirish to'lovlari konsalting shartnomasi imzolangan vaqtda haqiqatda ish faoliyatida bo'lgan xodimlar tomonidan imzolangan bildirgi asosida har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar amalga oshirilishi;

konsalting xizmatini ko'rsatuvchi bo'linma xodimlarini rag'batlantirish uchun ajratilgan mablag'lar bo'linmaning konsalting shartnomasi imzolangan vaqtda haqiqatda ish faoliyatida bo'lgan xodimlari (mehnat ta'tili, mehnatga qobiliyatsizlik ta'tili yoki ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta'tillarda bo'lgan xodimlardan tashqari) o'rtasida teng taqsimlanishi shart.

19. Statistika dasturlariga kiritilmagan ishlarni bajarish, qo‘shimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma’lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni taqdim etish va boshqa xizmatlarni o‘z ichiga olgan konsalting xizmatlarini ko‘rsatishdan kelib tushgan mablag‘larni taqsimlash:

Milliy statistika qo‘mitasida – qo‘mita raisi tomonidan;

hududiy statistika boshqarmalarida – hududiy statistika boshqarmasi boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

20. Konsalting xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha bajaruvchi bilan shartnomaning tuzilganligi, respondentlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik yoki statistik ko‘rsatkichlarni buzib ko‘rsatganlik uchun ma’muriy jazo choralari qo‘llanishdan ozod qilmaydi.

21. Berilgan ma’lumotlar asosida respondentlar tomonidan chiqarilgan (qabul qilingan) qarorlarning natijasi bo‘yicha Milliy statistika qo‘mitasi va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlar javobgar hisoblanmaydi.

22. Mazkur Tartibni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

23. Mazkur Tartib talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Konsalting xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha paketlar

T/r	Xizmatlar	1-tarif	2-tarif	3-tarif	4-tarif
1.	Statistika ma’lumotlarini broshyura va fleshkada taqdim etish			+	+
2.	Statistika hisoboti shakllarini taqdim etish to‘g‘risida xabardor qilish <i>respondentni individual xabardor qilish</i>				
	“Yozma eslatma” <i>elektron pochta manziliga</i>	1 ta elektron pochta manziliga	2 ta elektron pochta manziliga	3 ta elektron pochta manziliga	5 ta elektron pochta manziliga
	“SMS xabarnoma” <i>telefon raqamiga</i>	1 ta telefon raqamga	2 ta telefon raqamga	3 ta telefon raqamga	5 ta telefon raqamga
	“Telefon qo‘ng‘iroq eslatma” <i>ovozli xabar orqali</i>	1 ta telefon raqamga	2 ta telefon raqamga	3 ta telefon raqamga	5 ta telefon raqamga
3.	Statistika hisobot shakllarini to‘ldirish bo‘yicha maslahat (tushuntirish) xizmatlari:				
	telefon orqali tushuntirish berish	1 ta hisobot bo‘yicha	2 ta hisobot yoki so‘rovnoma bo‘yicha	4 ta hisobot yoki so‘rovnoma bo‘yicha	barcha hisobot yoki so‘rovnoma bo‘yicha
	Zoom platformasi orqali seminar o‘tkazish <i>(grafikka asosan)</i>			5 soat	10 soat
	Statistika organlari xodimlari tomonidan joylarda seminar o‘tkazish <i>(grafikka asosan)</i>			3 soat	10 soat
4.	Statistika ma’lumotlarini taqdim etish:				
	O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘yicha axborotnomasi	+	+	+	+
	Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘yicha axborotnomasi		+	+	+
	Tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘yicha axborotnomasi			+	+
5.	Statistik ko‘rsatkichlar asosida tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash <i>so‘rovga asosan tarmoqlar bo‘yicha mavjud statistik ko‘rsatkichlar va uslubiyotlardan foydalangan holda tahliliy ma’lumotlar tayyorlash</i>		1 yillik 10 ta ko‘rsatkich bo‘yicha	5 yillik dinamik qator, 30 ta ko‘rsatkich	10 yillik dinamik qator, 50 ta ko‘rsatkich
6.	Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) bo‘yicha ma’lumot taqdim etish <i>so‘rovga asosan KTYaDR bazasida yuridik shaxslar to‘g‘risidagi 16 turdagi ma’lumotlar taqdim etish</i>	10 ta korxona to‘g‘risida ma’lumot	100 ta korxona to‘g‘risida ma’lumot	1000 ta korxona to‘g‘risida ma’lumot	10000 ta korxona to‘g‘risida ma’lumot
7.	Statistik byulletenlarni taqdim etish <i>tarmoq yo‘nalishlari bo‘yicha, elektron shaklda</i>	1 ta byulleten	3 ta byulleten	5 ta byulleten	7 ta byulleten
8.	Statistik to‘plamlarni tayyorlash va taqdim etish <i>elektron shaklda</i>	1 ta to‘plam	3 ta to‘plam	5 ta to‘plam	barcha to‘plam ^{*)}
9.	Boshqa konsalting xizmatlari <i>kuzatuv, o‘rganishlar olib borish va boshqalar</i>	<i>Shartnoma asosida kelishuvga ko‘ra</i>			

^{*)} Statistik to‘plamlar soni Statistika dasturiga muvofiq chop etiladigan to‘plamlar sonidan kelib chiqadi.

**Konsalting xizmatlarini ko‘rsatishda respondentlar bilan shartnoma
tuzish bo‘yicha paketlar tariflari**

T/r	Sohalar nomi	1-tarif	2-tarif	3-tarif	4-tarif
1.	Qishloq xo‘jalik korxonalari	1 BHM	8 BHM	15 BHM	20 BHM yuqori
2.	Sanoat korxonalari	1 BHM	20 BHM	35 BHM	40 BHM yuqori
3.	Savdo korxonalari	1 BHM	15 BHM	25 BHM	30 BHM yuqori
4.	Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar	1 BHM	10 BHM	20 BHM	25 BHM yuqori
5.	Qurilish korxonalari	1 BHM	15 BHM	25 BHM	30 BHM yuqori
6.	Nodavlat va notijorat korxonalar, boshqalar	1 BHM			

Konsalting xizmatlari ko‘rsatishdan tushgan pul mablag‘larini taqsimlash yo‘nalishlari

T/r	Daromad va xarajatlar	Ulushi
1.	Tushgan daromad	100%
2.	QQS – 12%	12%
3.	Konsalting xizmatini ko‘rsatuvchi bo‘linmani rag‘batlantirish <i>kasaba uyushma badali (1%) va daromad solig‘ini (12%) qo‘shgan holda</i>	30%
4.	Boshqarmaning xarajatlari <i>kasaba uyushma badali (1%) va daromad solig‘ini (12%) qo‘shgan holda</i>	30%
5.	Milliy statistika qo‘mitasiga ajratma <i>ko‘rsatilgan xizmatlar (ma‘lumot taqdim etish, xabar yuborish, telefon va SMS), statistik to‘plamlar, jumladan fleshkada</i>	10%
6.	Ijtimoiy soliq – 25%	15%
	Jami soliq ushlanmalari:	
	Xarajatdan keyin taqsimlanmagan mablag‘	3%
	Foyda solig‘i – 15%	
	Sof foyda	